

**“JONON MENING JONIMDA” ASARINING TA’LIM VA TARBIYADA TUTGAN
O’RNI**

Po’latova Zubayda Abduravupovna

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

p.zubi@mail.ru +998913364397

Annotatsiya: Bu maqola nemis islomshunos olimasi Annemariye Shimmelning “Jonon mening jonimda” asarinng ta’lim va tarbiyada tutgan o’rnini ochib berishga qaratilgan. Yana asarning ayollar ma’naviy-axloqiy qiyofasiga doir o’rinlari tahlil qilinib, tegishli xulosa va tavsylar berilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, islam, so’fizm, asar, ma’naviyat, ayol siymosi.

Аннотация. Целью данной статьи является раскрытие роли книги немецкого исламоведа Аннемари Шиммель «Моя душа - женщина» в образовании и воспитании. Также были проанализированы части работы, связанные с духовно-нравственным обликом женщины, и даны соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: образование, воспитание, ислам, суфизм, труд, духовность, женская фигура

Annotation. This article aims to reveal the role of German Islamic scholar Annemarie Schimmel's book "My soul is a woman" in education and upbringing. Also, the parts of the work related to women's spiritual and moral image were analyzed, and appropriate conclusions and recommendations were given.

Key words: education, upbringing, Islam, Sufism, work, spirituality, female figure

KIRISH

1922-2003-yillarda yashab ijod qilgan nemis islomshunos olimasi Annemariye Shimmel barcha madaniyat ixlosmandlariga Islom dini to‘g‘risida chuqur va har tomonlama ma’lumotlar berish ishiga o‘zining zalvorli hissasini qo‘shtigan. Uning “Die Frau ist meine Seele” asari tarjimon Yo’ldosh Parda tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan va o‘zbek tilida “Jonon mening jonimda” deb atalgan.

Ushbu asar 1995 yilda dunyo yuzini ko‘rgan bo’lsa, endilikda kitob o‘zbek tiliga o‘girilganligi sharofatidan o‘zbek kitobxonlarida ham zahmatkash olma ijodining bir qirrasi bilan yaqindan tanishish, uning ma’naviy merosidan baha olish imkoniyati tug’ildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Asarda ilk so‘fiy ayol Robiya al-Adaviya, mashhur so‘fiylarning onalari, opa-singallari, onalar, momolar, kelinlar haqida, umuman, islam olamida ayollarga bo‘lgan munosabat shunchalar qiziq va kamyob ma’lumotlar asosida bayon qilib berilganki, ular o‘quvchini hayratlantiradi.

Islom so‘fizmining ibtidosi Robiya al-Adaviyya yoki Basralik Robiya (Basra Robyyaning ona shahri)ning nomi bilan bog‘liq. U dunyoning barcha lazzatlaridan voz kechishga undaydigan tarkidunyochilikning chinakam ishq, ya’ni Allohning ishqini bilan yashashga undaydigan so‘fizmga aylanishida asosiy, hal etuvchi rol o‘ynagan ayoldir. Rivoyat qilishlaricha, bir kuni xudojo‘y so‘fiy Robiya bir qo‘lida bir chedak suv, ikkinchi qo‘lida yonib turgan mash’ala ko‘targancha Basra ko‘chalaridan yugurib o‘tayotgan ekan. Yo‘lovchilar hayron bo‘lib undan so‘rashibdi:

— Bunchalar shoshilib qaylarga yo‘l tutding, ey Robiya?

Robiya qo‘lidagi chelakka ishora qilibdi:

—Do‘zaxdagil o‘tni o‘chirmoqchiman. Yo‘lovchilar yoqalarini tutib, «astag‘firulloh» degancha, so‘rashibdi:

—U holda qo‘lingdagi mash’ala nechun?

—Bu mash’ala bilan jannatga o’t qo‘ymoqchiman. Yo‘lovchilarning yuzlaridan qoni qochib qichqirishibdi:

— Allohdan mag‘firat so‘rab iltijo qil, ey badbaxt ayol, aks holda kofir qavmlardan bo‘lib qolasan.

— Yo‘q, azizlarim, sizlar meni noto‘g‘ri tushundinglar. Men kofir emasman, Alloh taolo bilan bandalar o‘rtasidagi bu ikki pardani yo‘qtmoqchiman xolos, tokim bandalar Alloh taologa do‘zax o‘tlarida kuyishdan qo‘rqishgani yoki jannat iqbolidan umidvor bo‘lishgani uchun emas, balki Uning Alloh ekanligi, Viru Bor ligi va Boqiy go‘zalligi uchun ibodat qilishsin».¹

Bu rivoyat tildan tilga ko‘chib, nasroniy dunyosiga ham kirib keldi. Uni Ludvig to‘qqizinchining vakili Jong-viil g‘arbgaga olib kelgan deyishadi, 1584-yil 3-noyabrda Parijda tug‘ilib, 1652 yil 26 aprelda o‘sha yerda vafot etgan fransuz ruhoniysi va yozuvchisi, kvyetizy namoyondasi Jan Pyer Kamyu o‘zining «Shafqat hamshiralari» kitobida shu rivoyatni ham sanab o‘tadi Kitobda sharqona kiyangan, bir qo‘lida chelak, bir qo‘lida mash‘al ko‘targan ayol surati ham berilgan. Surat tepasida ivrit harflari bilan «YHVH» ya’ni «Yehovah» (Xudo) deb yozilgan. Bundan rivoyat sharqqa mansubligi anglashiladi. Bundan tashqari, Yevropa adabiyotida ushbu rivoyatning ko‘pgina boshqa shakllari ham mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Basralik ozod etilgan qul ayol Robiya haqidagi rivoyatlar son-sanoqsiz, chunki Basra moziyda ko‘plab so‘fiylarning makoni bo‘lgan. 728 yilda vafot etgan mashhur taqvodor olim, so‘fiy Hasan al-Basriy to‘g‘risidagi rivoyatlarda ham Robiyaning nomi tilga olinadi. Islom olamining mashhur solnomachilarbu ayloning hayot yo‘lini aniq tasvirlab berishgan, chunki u insoniy barkamollikda «ko‘plab erkaklardan ustunroq bo‘lgan». Muhammad Zehniy o‘zining mashhur ayollar to‘g‘risidagi «Mashohir an niso» asarida Robiyanı «erkaklar boshidagi oltin toj», deb tasvirlaydi. Shu sababdan hozirgi kunlarda ham o‘zining xudojo‘yligi, taqvodorligi bilan mashhur bo‘lgan ayollar «ikkinchi Robiya» deb tasvirlanadi. Islom jamiyatida eng katta hurmatga loyiq zot turmush qurgan ayol, aniqrog‘i ona hisoblanadi. Muhammad alayhissalomning hozirgi kunlarga tildan tilga ko‘chib yurgan ushbu so‘zlariga e’tibor bersak:

«Xotin-qizlar, xush bo‘ylar mehri,
Bu dunyoda dilga bo‘ldi jo.
Ko‘nglim xushi, ko‘zim qorasi,
Dil yupanchi namozda ammo»².

Zero, ayollar xush bo‘ylar taratguvchilardir. «Tayyib» (yaxshi, xush) va «tib (bo‘y, hid) degan arab so‘zları bir o‘zakdan yasalgan so‘zlardir. Asarda Muhammad alayhissalomning birinchi rafiqasi Bibi Xadicha haqida so‘z ketar ekan, ilk vahiyalar kela boshlaganda uni yupatgan, dalda berib ko‘nglini ko‘targani, Hiro tog‘ining g‘orida ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgan chog‘larida sodir bo‘lgan voqeа shaytonning emas, Rahmonning xohishi bilan yuz bergeniga ishontira olgan birinchi zot ekanligi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. Yana Payg‘ambar alayhissalomning eng kenja qizi, Islom dini yo‘lida shahid bo‘lgan Imom Hasan va Imom Xusanlarning onasi Bibi Fotima butun musulmon olamida eng olijanob ayol, deb tan olingan. Asarda aytishicha, ba’zi so‘fiylar o‘ta sabr-toqatli erkaklarga beriladigan “fotir” nomini Fotimaning diniy ismi deb ham talqin etadilar.

Asarning “Qur’oni Karim va hadisi shariflarda ayollar siymosi” bo‘limida bir salbiy ayol siymosi- “Masad” surasida “o‘tin orqalagan ayol” deb tasvirlangan Ummu Jamil haqida so‘z boradi. U eri, ya’ni payg‘ambarning amakisi va ashaddiy dushmani Abu Lahabdan kufr ishlarida sira ham qolishmaydigan, turli bo‘htonlar tarqatib yuradigan do‘zaxiy ayol sifatida

¹ Annemariye Shimmel “Jonon mening jonimda” T., 1999-y. 44-45-betlar

² O‘sha asar 15-bet

tasvirlanadi. Shu yerda barcha chaqimchi, g'iybatchi kofirlar oqibatda do'zaxga tushishi haqida yozilgan ekan, bu dalillar barchani chaqimchilik, g'iybat kabi salbiy odatlardan uzoqda bo'lishga, bo'hton qilish kabi qusurlardan voz kechishga undaydi.

Asarning "Onalar" bo'limida onalarga xos homiladorik va to'lg'oq dardlari kishining ruhiy taraqqiyotiga qiyoslangan. Annemariye Shimmel so'zining isboti sifatida Farididdin Attorning misralaridan keltiradi:

"Kimki ishq dardiga homiladormas,
U ayol ayoldir, lek odam emas."

Og'riq, dard ruhiy poklanishning dastlabki shart-sharoitidir, bularsiz hech kim chinakam taqvodor bo'la olmaydi, deydi olima. Yana u shu o'rinda Rumiya murojaat qilib, "har bir jonda bir Iso tug'iladi" degan majoziy fikrni keltiradi. Rumiydan yarim asr keyin Ekhart degan olim: "Vujud bamisoli Bibi Maryamdir. Har birimizda bitta Iso bor, ammo to'lg'oq dardlari zohir bo'lmas ekan, Iso tug'ilmaydi. Dard tutmasa, Iso o'zi keladigan maxfiy yo'ldan o'zining ilk yaralmish holatiga qaytib ketadi va biz talon-taroj qilingan holda undan mahrum bo'lib qolamiz." -, degan fikrlarini keltirib, dard taraqqiyot uchun zarurat ekanligini ta'kidlaydi. Bibi Maryam to'lg'oq azoblarini boshdan kechirgach, shirin xurmo mevalari bilan mukofotlanganidek, dardu alamlarga oshiyon bo'lgan jon sevgilining jamolini ko'rgach barchasini unutib yuboradi.³ Olimaning ma'lumotlarni keltrishdagi boy spektri o'quvchini hayratga solish bilan birga, uni barkamollik sari yetaklab, o'z shaxsini rivojlantirishga, ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, insonning ichida dard bo'lsagina, bir ichki tug'yon jo'sh ursagina, inson bir ishga qo'l uradi, qiyinchiliklarga qaramay o'z maqsadi sari olg'a boradi, unga erishmagunch tinchimaydi. Shunday ekan, dardga ham ko'rgulik sifatida qaramasdan, uni to'g'ri anglab yetgan holda, unga bizga berilgan ichki motivatsiyaning asosi, komillikkha yetaklovchi yo'll deb qarash kerak, deb o'ylaymiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Annemariye Shimmelning islom diniga taalluqli mavzularda 120 tadan ortiq asarlari mavjud bo'lib, «Jonon mening jonimda» asari xonimning eng go'zal, eng sara asarlari sirasiga kiradi. Olimaning boy ma'naviy, adabiy merosi nafaqat Yevropa davlatlarida, balki Turkiya, Pokiston, Hindiston, Vietnam kabi dunyoning boshqa davlatlarida ham o'rganilmoqda. Uning asarlari Respublikamiz oliygohlari, pedagogika darslari kontenti doirasida ham keng o'rganilsa, asarlari ko'proq tarjima va tahlil qilinsa, mamlakatimizda Uchinchi Renessans davriga mos barkamol avlodlarni, munosib olimlarini yetishtirishda foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Annemariye Shimmel "Jonon mening jonimda" T., 1999-y.

³ O'sha asar. 54-bet